

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 1024
29 " 08 2022 y.



XALQARO MOLIYA FANIDAN
ISHCHI DASTUR

Bilim sohasi:	400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	5230600 –Moliya

Qarshi-2022

Fanning ishchi dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:
J.J.O'ramov

– "Moliya" kafedrasida katta o'qituvchisi

X.S.Muxitdinov

– QarMII, "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasida professori, iqtisod fanlari doktori.

Fayziyeva SH.SH.

– QMII "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Moliya" kafedrasining 2022 yil dagi son yig'ilishida hamda "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil dagi - son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.
Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil dagi ... son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

A.B.Qurbonov

Kafedra mudiri:

R.F.Omonov

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda mamlakatning xalqaro moliya tizimida ishtirokini ta'minlash va rivojlantirishning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, xalqaro moliya tizimi ishtirokchilari faoliyatini hamda xalqaro moliya munosabatlarini amalga oshirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga xalqaro moliya tizimi va uning asosiy elementlarini, xalqaro moliya tizimi ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etish va tartibga solish mexanizmini, xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarni boshqarish usullarini, mamlakatning xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida joriy holatni tahlil qilish va baholashni, davlatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirish yo'llarini tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- xalqaro moliya tizimi ishtirokchilarining faoliyatini, ularning tashkil topish manbalarining harakatini to'g'ri aks ettirish;
- xalqaro moliya munosabatlaridagi ishtiroki to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida tasavvurga ega bo'lishi;
- mamlakatning xalqaro moliya tizimida ishtirokini ta'minlash va rivojlantirish bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi va malakalariga ega bo'lishi kerak.

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va meyoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlaring elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'qitishda interfaol, kommunikativ, perseptiv yondashuvlardan maksimal darajada foydalanish, o'quv adabiyotlaridan tashqari autentik materiallar: audio, video, jurnallar, internet manbalaridan o'zlashtirilgan bilimlar majmuasini amaliyotda kuzatilayotgan dalil va hodisalarga bog'lay olish, olingan natijalarni baholash, tahlil qilish orqali kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va kompetensiyalarni innovatsion tafakkur layoqati negizida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash jarayonida:

- mezonni tanlash;
- o'quv maqsadlarini toifalash;
- o'quv materiallarini modullashtirish;
- ularni o'rganish, tahlil qilish va qayta ishlash;
- o'rganish natijalarini aniqlash kabi omillarga qaratish orqali ta'lim oluvchida nazariy bilimlar puxta egallanishi hamda ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talab etiladi.

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soat
8-semestr			
1.	1-mavzu. "Fanning predmeti va o'rganish usullari, xalqaro moliyaning nazariy asoslari	Xalqaro moliyaning maqsadi, vazifalari, predmeti va o'rganish usullari. Xalqaro moliyaning iqtisodiy mohiyati va rivojlanish omillari. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o'ri. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati.	2
2.	2-mavzu. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvi tushunchasining mohiyati va uning asosiy jihatlari. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari, omillari va rivojlanish bosqichlari. Globallashuvning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri.	2
3	3-mavzu. Xalqaro moliya tizimi.	Xalqaro moliya tizimining mohiyati, tarkibi va rivojlanish xususiyatlari. Xalqaro moliya tizimidagi munosabatlarni tartibga solish va uni isloh qilish yo'nalishlari.	2
4	4-mavzu Xalqaro valyuta munosabatlari.	Valyuta kursi va uning turlari. Valyuta operatsiyalarining mohiyati. Valyuta siyosati. Xalqaro valyuta munosabatlari mohiyati va funktsiyalari. Valyuta kursi va uning turlari. Valyuta operatsiyalarining mohiyati. Valyuta siyosati.	2
5.	5-mavzu. Xalqaro valyuta tizimi va uning bosqichlari.	Jahon valyuta tizimi va uning asosiy funktsiyalari. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari. Yevropa valyuta tizimining asosiy elementlari va rivojlanish bosqichlari.	2
6.	6-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida valyuta risklarini	Valyuta risklari tushunchasining iqtisodiy mohiyati va turlari. Valyuta riskining yuzaga kelish sabablari. Valyuta riskini boshqarish usullari va ularning mohiyati.	2

1.	1-mavzu. "Fanning predmeti va o'rganish usullari, xalqaro moliyaning nazariy asoslari	
2.	2-mavzu. Jahon iqtisodiyoti globallashuvi.	2
3.	3-mavzu. Xalqaro moliya tizimi.	2
4.	4-mavzu Xalqaro valyuta munosabatlari	2
5.	5-mavzu. Xalqaro valyuta tizimi va uning bosqichlari.	2
6.	6-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida valyuta risklarini boshqarish	2
7.	7-mavzu Xalqaro korporatsiyalar xalqaro moliya munosabatlarida sub'yekti sifatida.	2
8.	8-mavzu. Xalqaro integratsiya jarayonlari.	2
9.	9-mavzu. Xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya taraqqiyotidagi o'ri.	2
10.	10-mavzu. Xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya taraqqiyotidagi o'ri.	2
11.	11-mavzu. Xalqaro moliya tizimida moliya sanoat guruhlar.	2
12.	12-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida to'lov balansini boshqarish.	2
13.	13-mavzu. Jahon moliya bozori va uning rivojlantirish xususiyatlari	2
14.	14-mavzu. Moliyaviy derivativlarning xalqaro bozori.	2
15.	15-mavzu. Yevrobozorlarning yuzaga kelishi va ulardagi operatsiyalar.	2
16.	16-mavzu. Xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi.	2
17.	17-mavzu. Xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi.	2
18.	18-mavzu. Xalqaro hisob-kitoblari va ularning asosiy shakllari.	2
19.	19-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash.	2
20.	20-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlariga integratsiyalashuv masalalari	2
	Jami:	40

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor- o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni.

"Xalqaro moliya" fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

"Xalqaro moliya" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda internet saytlaridan foydalanib, konspektlar, referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarining darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi. Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha referat va konspektlar tayyorlash;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlar, monografiya va ilmiy to'plamlarni chuqur o'rganish;
- interaktiv va yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distsion) ta'limni tashkil etishda qatnashish;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish.

"Xalqaro moliya" fanidan mustaqil ish majmuasi fanining barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko'rinishida shakllantirilgan.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi - xalqaro moliya tizimining sub'ekti sifatida.
2. Milliy iqtisodiyotga xalqaro moliyaviy munosabatlarning ijobiy va salbiy ta'siri.
3. Xalqaro moliyaviy munosabatlarning turlari va ularning rivojlanishi.
4. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida xalqaro moliyaviy munosabatlarni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishga sifat jihatdan yangicha yondoshuv.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyatga davlat tomonidan ta'sir etishning moliyaviy usullari va vositalari.
6. Jahon moliyaviy arxitekturasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar.
7. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish muammolari.
8. Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotiga ta'siri.
9. O'zbekistonda xalqaro moliya munosabatlari samaradorligini oshirishning valyuta mexanizmi.
10. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning zamonaviy tendentsiyalari.
11. Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish xususiyatlari.
12. Xalqaro ssuda kapitallari va investitsiya bozoridagi operatsiyalar.
13. Xalqaro aksiyalar bozorining rivojlanish tendentsiyalari.
14. Xalqaro sug'urta bozoridagi operatsiyalar.
15. Xalqaro moliya bozorining fundamental tahlil usullaridan foydalanish amaliyoti.
16. Xalqaro moliya bozorining texnik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanish.
17. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari va uning xususiyatlari.
18. Mamlakat milliy valyuta siyosatining iqtisodiy mazmuni, maqsad va shakllari.
19. Xalqaro moliya bozorini tartibga solishdagi muammolar.
19. Moliyaviy derivativlar bozoridagi operatsiyalar.

	boshqarish.		
7.	7-mavzu Xalqaro korporatsiyalar xalqaro moliya munosabatlari sub'yekti sifatida.	Xalqaro korporatsiyalarning yuzaga kelishi va ular faoliyatining mohiyati. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining asosiy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari. Transmilliy korporatsiyalar faoliyatining iqtisodiyot uchun afzalliklari. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari.	2
8	8-mavzu. Xalqaro integratsiya jarayonlari.	Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy shart-sharoitlari. Xalqaro integratsion birlashmalarning asosiy shakllari. G'arbiy Evropada iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha mamlakatlarning hududiy integratsiyasiga xos xususiyatlar (NAFTA). Rivojlanayotgan mamlakatlar hududiy integratsiyasining xususiyatlari (MERKOSUR). Osiyo hududiy integratsiyasining xususiyatlari (ASEAN, APEC va h.k.).	2
9.	9-mavzu. Xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya taraqqiyotidagi o'rni.	Jahon moliyaviy markazlari: zamonaviy nazariyalar, rivojlanish bosqichlari va shakllantirish shart-sharoitlari. Global va xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tizimi. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar va masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanish xususiyatlari.	2
10.	10-mavzu. Xalqaro moliya tashkilotlarining xalqaro moliya taraqqiyotidagi o'rni.	Jahon moliyaviy markazlari: zamonaviy nazariyalar, rivojlanish bosqichlari va shakllantirish shart-sharoitlari. Global va xalqaro moliyaviy markazlarni baholash tizimi. Sharqiy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy markazlar va masofaviy moliyaviy xizmatlarni rivojlanish xususiyatlari.	2
11.	11-mavzu. Xalqaro moliya tizimida moliya-sanoat guruhlarini.	Moliya-sanoat guruhlarini tushunchasining iqtisodiy mohiyati va ularning tasniflanishi. Vertikal va gorizontal moliya-sanoat guruhlarini. Moliya-sanoat guruhlarining iqtisodiyot uchun afzalliklari. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning asosiy yo'llari. Moliya-sanoat guruhlarini qatnashchilari. Moliya-sanoat guruhlarining funktsiyalari. Jahonda moliya-sanoat guruhlarini shakllanishi va rivojlanishining asosiy jihatlari. Xorijiy mamlakatlarda moliya-sanoat guruhlarini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Moliya-sanoat guruhlarini faoliyatini tartibga solish. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish modellari.	2
12.	12-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida to'lov balansini boshqarish.	Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta-moliyaviy va to'lov shartlari. Xalqaro hisob-kitob shakllarining tasniflanishi.	2
13.	13-mavzu. Jahon moliya bozori va	Xalqaro moliya bozorining mohiyati va tarkibiy tuzilishi. Xalqaro fond bozori va undagi	2

	uning rivojlantirish xususiyatlari.	operatsiyalar.Xalqaro moliya bozorining rivojlanish tendentsiyalari va uni tartibga solish usullari.	
14.	14-mavzu Moliyaviy derivativlarning xalqaro bozori	Moliyaviy derivativlar mohiyati va ularga xos xususiyatlar.Hosila moliyaviy vositalarning asuosiy turlari.Kredit va foiz derivativlari. Hosilaviy moliya instrumentlarining global bozori rivojlanishi.	2
15.	15-mavzu. Yevrobozorlarning yuzaga kelishi va ulardagi operatsiyalar.	Yevrobozorlar va ularga xos xususiyatlar.Yevrokredit bozori.Yevrovalyutadagi qimmatli qog'ozlar bozori. Yevroobligatsiyalar muomalasi.	2
16.	16-mavzu. Xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi.	Xalqaro kredit, uning funktsiyalari va tamoyillari. Xalqaro kreditning asosiy shakllari. Xalqaro kredit operatsiyalarida faktoring va forfeyting.	2
17.	17-mavzu. Xalqaro kredit va investitsiya munosabatlarining rivojlanishi.	Xalqaro kredit, uning funktsiyalari va tamoyillari. Xalqaro kreditning asosiy shakllari. Xalqaro kredit operatsiyalarida faktoring va forfeyting.	2
18.	18-mavzu.Xalqaro hisob-kitoblar va ularning asosiy shakllari.	Xalqaro hisob-kitoblarning mohiyati va asosiy xususiyatlari.Xalqaro hisob-kitoblarda valyuta-moliyaviy to'lov shartlari. Xalqaro hisob-kitob shakllarining tasniflanishi. To'lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari.To'lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar.To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari.	2
19.	19-mavzu. Xalqaro moliya munosabatlarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash.	Xalqaro moliyaviy xavfsizlikning mohiyati va milliy iqtisodiyotdagi o'mi. Moliyaviy xavfsizlikning asosiy tamoyillari va turlari. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliyaviy xavfsizlik holati. Xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash borasida xalqaro hamkorlik aloqalari	2
20.	20-mavzu. O'zbekiston xalqaro moliya munosabatlariga Integratsiyalashuvi	O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy tamoyillari.Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari. O'zbekistonning xalqaro valyuta-kredit tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari.	2
		8-semestr jami ma'ruza	40

Hammasi:

Amaliy mashg'ulotlar 6-semestr

№	Mavzular	
	III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.	2

- 20.Xalqaro elektron to'lov tizimining xalqaro moliya munosabatlariga ta'siri.
- 21.Xalqaro korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi.
- 22.Xalqaro moliya tizimida moliya-sanoat guruhlarining roli.
- 23.Jahonda iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanish tendentsiyalari.
- 24.Transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelish sabablari, funktsiyalari va tasniflanishi.
- 25.Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanish bosqichlari.
- 26.Osiyo hududiy integratsiyasi xususiyatlari.
- 27.Jahon banki guruhi va unga kiruvchi tashkilotlar faoliyati.
- 28.O'zbekistonda tashqi savdo operatsiyalarini rivojlantirish amaliyoti.
- 29.To'lov balansining mazmuni va ko'rsatkichlari.
- 30.O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligi.
- 31.Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning tashkil topishi va rivojlanishi.
- 32.Xalqaro moliya tizimida xalqaro moliya institutlarining roli va ahamiyati.
- 33.Xalqaro savdo munosabatlari rivojlanishining xalqaro moliya tizimiga ta'siri.
- 34.Investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirishning xalqaro tajribalari va ulardan O'zbekistonda foydalanish istiqbollari.
- 35.Jahon moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda xalqaro moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari.
36. Xalqaro moliya bozori tahlili va tartibga solish. Xalqaro elektron to'lov tizimi.
37. Xalqaro moliya tizimida institutlar faoliyati.

Fan boyicha kurs ishi

O'quv rejaga ko'ra mutaxassisligida nazarda tutilgan. "Xalqaro moliya" fani bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

-talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;